



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 591 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 519 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 18 715,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan 9,7 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 681,0 mlrd so'mni (2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 034,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 425,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 368 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 32 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 336 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 785,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 10 468,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 97,1 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Tuproqqal'a (14,5 m.), Qo'shko'pir (2,5 m.), Yangibozor (2,2 m.), Urganch shahri (2,1 m.), Shovot (142,1%) va Bog'ot tumanlarida (160,4 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 500 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 496 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13 641,0 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: +998622246516 (9090)	Ijrochi: R.Buxarbayev Tel: +998622246509 (9040) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	--	--